



# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya Vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023- yil 1- oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 27 331 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 24 104 ta).

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

22,8% 18,0% 14,2% 16,3% 19,0%




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 586 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha oxirgi uch yil mobaynida ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 1 498 taga, xususi korxonalar 343 taga ko'paygan.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	670	12,9%	Yangiariq t.	380	22,6%
Shovot t.	529	28,8%	Xiva t.	333	17,7%
Urganch t.	499	16,9%	Xiva sh.	313	14,7%
Qo'shko'pir t.	478	22,3%	Xonqa t.	310	15,0%
Bog'ot t.	453	23,7%	Yangibozor t.	284	22,1%
Gurlan t.	421	22,6%	Tuproqqal'a t.	139	18,7%
Hazarasp t.	384	23,0%			

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan 9 337 taga oshganligini quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 4 759 tadan 9 319 taga (o'sish 4 560 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 1 569 tadan 2 762 taga (o'sish 1 193 ta), sanoat – 2 967 tadan 4 120 taga (o'sish 1 153 ta).

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	5 174	Gurlan t.	1 865
Urganch t.	2 944	Shovot t.	1 839
Qo'shko'pir t.	2 140	Yangiariq t.	1 682
Xiva sh.	2 128	Hazorasp t.	1 666
Xonqa t.	2 064	Yangibozor t.	1 286
Bog'ot t.	1 913	Tuproqqal'a t.	745
Xiva t.	1 885		


2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


26,4% 20,7% 15,7% 18,0% 21,1%




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida, yildan-yilga ularning investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 5 119 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 5 096 tani;
- yirik korxonalar 23 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Urganch sh.	642	14,3%	Yangiariq t.	379	25,2%
Shovot t.	526	32,7%	Xiva t.	328	19,4%
Urganch t.	492	18,4%	Xiva sh.	309	15,6%
Qo'shko'pir t.	475	24,8%	Xonqa t.	306	16,6%
Bog'ot t.	448	26,4%	Yangibozor t.	282	25,1%
Gurlan t.	419	25,4%	Tuproqqal'a t.	133	21,2%
Hazorasp t.	380	26,3%			

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- oktabr holatiga 24 243 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 162,2 foizni tashkil etdi ( 9 295 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,4 foiz, sanoat – 17,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,3 foiz, qurilish – 7,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,7 foiz, tashish va saqlash – 4,6 foiz, axborot va aloqa – 1,5 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,2 foiz, boshqa turlari – 11,0 foiz.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	4 483	Gurlan t.	1 651
Urganch t.	2 676	Shovot t.	1 610
Xiva sh.	1 977	Yangiariq t.	1 505
Qo'shko'pir t.	1 919	Hazorasp t.	1 444
Xonqa t.	1 844	Yangibozor t.	1 124
Bog'ot t.	1 695	Tuproqqal'a t.	626
Xiva t.	1 689		

2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


2023- yil yanvar-sentabr oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 1 619 tadan 2 158 taga (o'sish 539 taga), tashish va saqlashda – 206 tadan 314 taga (o'sish 108 taga), qurilishda – 162 tadan 200 taga (o'sish 38 taga) ko'paydi.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	642	12,4%	Yangiariq t.	378	22,5%
Shovot t.	526	28,6%	Xonqa t.	325	17,2%
Urganch t.	491	16,7%	Xiva t.	309	14,5%
Qo'shko'pir t.	474	22,1%	Xiva sh.	300	14,5%
Bog'ot t.	447	23,4%	Yangibozor t.	279	21,7%
Gurlan t.	412	22,1%	Tuproqqal'a t.	133	17,9%
Hazorasp t.	380	22,8%			

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Urganch shahrida (18,4 foiz), Urganch tumani (11,1 foiz), Xiva shahri (8,1 foiz), Qo'shko'pir (7,9 foiz) va Xonqa (7,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 77,3 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	4 434	Gurlan t.	1 644
Urganch t.	2 663	Shovot t.	1 603
Xiva sh.	1 973	Yangiariq t.	1 497
Qo'shko'pir t.	1 913	Hazorasp t.	1 435
Xonqa t.	1 833	Yangibozor t.	1 118
Bog'ot t.	1 686	Tuproqqal'a t.	623
Xiva t.	1 682		




## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

### Hududlar kesimida


Gurlan t.	405
Urganch t.	336
Qo'shko'pir t.	303
Xonqa	300
Xiva t.	250
Yangiariq t.	234
Bog'ot t.	194
Shovot	188
Yangibozor t.	169
Tuproqqal'a t.	108
Hazorasp t.	101
Xiva sh.	93
Urganch sh.	81



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.


### Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	731
Urganch t.	451
Qo'shko'pir t.	409
Xonqa t.	366
Xiva t.	306
Xiva sh.	297
Shovot t.	271
Bog'ot t.	263
Gurlan t.	240
Hazorasp t.	223
Yangiariq t.	223
Yangibozor t.	192
Tuproqqal'a t.	148



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi besh yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 138,8 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 15,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 97,9 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 86,5 foiz), 0,5 foizini tog-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati 100,0 foiz), 1,3 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati 86,5 foiz) va 0,3 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati 82,8 foiz) tashkil etgan.



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	392
Xiva t.	246
Urganch t.	221
Xiva sh.	192
Qo'shko'pir t.	153
Xonqa t.	116
Shovot t.	97
Yangiariq t.	93
Gurlan t.	63
Bog'ot t.	63
Yangibozor t.	60
Hazorasp	57
Tuproqqal'a t.	32



Qurilish sohasining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 83,5 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,3 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 25,4 foiz ulushni va 75,5 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

339



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

454

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

992


Bino va  
inshootlar qurish



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	1 611
Urganch t.	1 030
Bog'ot t.	812
Xiva sh.	731
Shovot t.	692
Qo'shko'pir t.	673
Hazorasp t.	670
Yangiariq t.	637
Xonqa t.	599
Gurlan t.	590
Xiva t.	572
Yangibozor t.	473
Tuproqqal'a t.	229



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 9 300 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 65,0 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 105,0 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishi 23,4 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 106,2 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishi 11,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 121,1 foizni tashkil etdi.

**1 081**

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

**2 178**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


**6 060**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	393
Xiva sh.	279
Urganch t.	169
Xonqa t.	101
Gurlan t.	98
Shovot	98
Bog'ot t.	90
Yangibozor t.	84
Xiva t.	82
Qo'shko'pir t.	80
Yangiariq t.	69
Hazorasp t.	55
Tuproqqal'a t.	43



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 140,2 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'klar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 14,6 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 85,4 foiz ulushini tashkil etdi.

240

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 401


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	116
Xiva sh.	46
Xonqa t.	36
Urganch t.	28
Gurlan t.	25
Qo'shko'pir t.	24
Yangiariq t.	24
Xiva t.	23
Shovot t.	22
Bog'ot t.	17
Hazorasp t.	9
Yangibozor t.	7
Tuproqqal'a t.	5



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 22,5 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 110,3 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 31,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 84,0 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 45,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 103,6 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

Urganch sh.	216
Xiva sh.	52
Urganch t.	52
Xonqa t.	46
Gurlan t.	40
Xiva t.	38
Shovot t.	36
Hazorasp	34
Qo'shko'pir t.	28
Yangiariq	26
Bog'ot t.	25
Yangibozor t.	20
Tuproqqal'a t.	8



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 583 ta yoki 86,4 foiz ulushi kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

- sog'liqni saqlash yo'nalishiga 93,8 foiz korxonalar to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,4 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,9 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 96,0 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,3 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 140,0 foizni tashkil etdi.

14

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

24




583

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	228
Hazorasp t.	159
Xonqa t.	114
Urganch t.	112
Bog'ot t.	80
Shovot t.	80
Qo'shko'pir t.	75
Xiva sh.	69
Gurlan t.	66
Xiva t.	50
Yangiariq t.	39
Yangibozor t.	22
Tuproqqal'a t.	18



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 4,0 foizni tashkil etdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 109,1 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 114,8 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishi 2,5 marta oshdi;
- havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2,2 marta oshdi.





**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy  
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**  
2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	463	Xiva t.	236
Hazorasp t.	378	Xiva sh.	199
Qo'shko'pir t.	352	Shovot t.	196
Gurlan t.	346	Xonqa t.	150
Urganch t.	336	Tuproqqal'a t.	122
Yangiariq t.	319	Yangibozor t.	115
Bog'ot t.	291		


2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 24 243 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 13 943 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich yashash va ovqatlanish 118,3 foiz, savdoda – 116,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 113,1 foiz, tashish va saqlashda – 112,4 foizni, axborot va aloqada – 110,8 foiz, tashkil etdi.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	2 595	Xiva t.	975
Urganch t.	1 395	Bog'ot t.	955
Hazorasp t.	1 191	Xonqa t.	798
Gurlan t.	1 141	Shovot t.	701
Qo'shko'pir t.	1 126	Tuproqqal'a t.	529
Xiva sh.	1 100	Yangibozor t.	397
Yangiariq t.	1 040		

2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida savdoda yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 325 taga, savdoda 179 taga, sanoatda 44 taga ko'paygan.


## Hududlar kesimida

Shovot t.	246	Urganch t.	47
Yangibozor t.	121	Xiva sh.	23
Urganch sh.	106	Hazorasp t.	13
Bog'ot t.	106	Xiva t.	7
Xonqa t.	84	Yangiariq t.	5
Qo'shko'pir t.	59	Tuproqqal'a t.	1
Gurlan t.	57		

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda 5,9 foizga ko'paygan.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining 2019- yilning mos davriga nisbatan ko'payishiga qurilish (130,7 foiz), axborot va aloqa (114,0 foiz), sanoat sohalari (108,1 foiz), tumanlar kesimida esa – Shovot (2,0 marta), Bog'ot (141,5 foiz), Qo'shko'pir (131,5 foiz) Yangibozor (120,3 foiz), Xonqa (120,1 foiz), tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	1 203	Xiva sh.	308
Urganch t.	618	Bog'ot t.	268
Shovot t.	552	Xiva t.	276
Xonqa t.	532	Hazorasp t.	101
Yangibozor t.	421	Yangiariq t.	91
Gurlan t.	370	Tuproqqal'a t.	34
Qo'shko'pir t.	330		


2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Oilaviy korxon** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxon faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Hududlar kesimida

Urganch t.	108	Xonqa t.	50
Xiva t.	85	Yangibozor t.	46
Shovot t.	84	Qo'shko'pir t.	38
Xiva sh.	86	Gurlan t.	15
Urganch sh.	72	Hazorasp t.	15
Bog'ot t.	73	Tuproqqal'a t.	10
Yangiariq t.	53		

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 2 688 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalaridagi: savdoda – 563 tadan 1 936 taga (o'sish 1 373 taga), sanoatda – 603 tadan 1 236 taga (o'sish 633 taga), yashash va ovqatlanishda – 561 tadan 831 taga (o'sish 270 taga) korxonalar sonining oshishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida

Urganch t.	648	Yangiariq t.	357
Urganch sh.	632	Shovot t.	339
Xiva sh.	553	Yangibozor t.	279
Xonqa t.	505	Hazoraspt.	138
Bog'ot t.	450	Gurlan t.	120
Qo'shko'pir t.	448	Tuproqqal'a t.	57
Xiva t.	431		

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

187,9%


130,6%

119,1%

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

96,4%

67,7%



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Keyingi 5 yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,6 foizga oshdi.

Yetakchi o'rinni 126 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkiya Respublikasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 15,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Xorazm viloyatiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 15,1 foiz), Turkmaniston (ulushi 7,9 foiz), Xitoy (ulushi 6,3 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 1,6 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	52	Yangibozor t.	6
Urganch t.	10	Tuproqqal'a t.	5
Xiva t.	8	Yangiariq t.	5
Xiva sh.	8	Qo'shko'pir t.	4
Xonqa t.	7	Hazorasp t.	4
Gurlan t.	7	Bog'ot t.	4
Shovot t.	6		




2023- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda



O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 71 tasi qo'shma korxonalar, 55 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda***xorijiy korxonalar****qo'shma korxonalar**

<b>24</b>	<b>Urganch sh.</b>	<b>26</b>
<b>3</b>	<b>Xiva sh.</b>	<b>5</b>
<b>2</b>	<b>Bog'ot t.</b>	<b>2</b>
<b>3</b>	<b>Gurlan t.</b>	<b>4</b>
<b>2</b>	<b>Qo'shko'pir t.</b>	<b>2</b>
<b>5</b>	<b>Urganch t.</b>	<b>5</b>
<b>3</b>	<b>Hazorasp t.</b>	<b>2</b>
<b>3</b>	<b>Tuproqqal'a t.</b>	<b>2</b>
<b>3</b>	<b>Xonqa t.</b>	<b>4</b>
<b>3</b>	<b>Xiva t.</b>	<b>6</b>
<b>1</b>	<b>Shovot t.</b>	<b>5</b>
<b>2</b>	<b>Yangiariq t.</b>	<b>3</b>
<b>1</b>	<b>Yangibozor t.</b>	<b>5</b>

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish  
boʻlimi  
Tel.: (62) 22-4-65-11